

TALABALAR O`QISHINI KO`CHIRISH HAQIDA

Asos: 2022-yil 15-iyunda imzolangan PQ-279-som Prezident qarori. (<https://lex.uz/docs/6070845>), 2021-yil 06-iyunda imzolangan VM-421-som qarori. (<https://lex.uz/docs/-5495526>).

Arizalar qachon beriladi?

Yozgi ko`chirish muddatida:

1. O`qishni ko`chirish bo`yicha arizalar har yili **15-iyuldan 5-avgustgacha** beriladi.
2. Arizalar har yili **5-avgustdan 30-avgustga** ko`rib chiqiladi.

Qishgi ko`chirish muddatida:

1. O`qishni ko`chirish bo`yicha arizalar har yili **20-dekabrdan 20-yanvargacha** beriladi.
2. Arizalar har yili **25-yanvardan 15-fevralgacha** ko`rib chiqiladi. (**Eslatib o`tamiz qishki ko`chirish muddatlarida faqatgina ikkita uzrli sabab egalari xujjat topshirishlari mumkin**)

O`qishini ko`chirish uchun quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

1. Ko`chirishni istagan ta'lif yo`nalishi, o`quv tili va shakli ko`rsatilgan holdagi ariza;
2. Reyting daftarchasi yoki akademik ma'lumotnoma nusxalari;
3. Ichki perevod bo'lsa asoslantiruvchi hujjat;
4. Pasport yoki ID nusxasi.

Arizalar quyidagi elektron tizimlar orqali qabul qilinadi:

→ **transfer.edu.uz** — respublikaning bir OTMdan boshqa OTMga yoki bir OTM doirasida;

→ **my.uzbmb.uz** — xorijiy va nodavlat oliy ta'lif muassasalaridan davlat OTMlariga.

→ **OTMdagi ma`sul xodimga offlayn tarzda (OTM doirasida).**

Talabalar o`qishini ko`chirish shakllari:

1. Bir davlat OTMdan boshqa davlat OTMga o`qishni ko`chirish:

Bunday holda faqat 2 ta vaziyatda ruxsat beriladi:

1) talaba oila qursa va turmush o`rtog`i doimiy yashaydigan hududdagi OTMga ko`chmoqchi bo`lsa;

2) davlat xizmatchisi ish yuzasidan boshqa hududga ko`chsa va turmush o`rtog`i yoki voyaga yetmagan farzandining o`qishini o`sha hududga ko`chirmoqchi bo`lsa (ishga kirgan vazirlik xati asosida).

XBoshqa holda “ichki perevod”ga ruxsat yo`q. Boshqa hududga ham, o`z hududidagi boshqa OTMga ham.****

2. Xorijdan o`qishni ko`chirish:

1) mos va turdosh yo`nalishga test yoki ijodiy imtihon topshiradi hamda o`tish balini toplash talab etiladi.

2) o‘tish balini to‘play olmasa, super-kontrakt shartlari asosida o‘qishini ko‘chirishga ruxsat beriladi;

Xorijdan mos va turdosh bo‘lmagan yo‘nalishga o‘qishni ko‘chirishga ruxsat berilmaydi.

3. O‘zbekistondagi xorijiy va nodavlat OTMlardan o‘qishni ko‘chirish:

1) mos va turdosh yo‘nalishga test yoki ijodiy imtihon topshiradi hamda o‘tish balini to‘plash talab etiladi.

2) o‘tish balini to‘play olmasa, super-kontrakt shartlari asosida o‘qishini ko‘chirishga ruxsat beriladi;

3) mos va turdosh bo‘lmagan yo‘nalish uchun esa bir martalik “super-kontrakt” to‘lab ko‘chirishi mumkin.

4. Davlat OTMdan nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish:

Buni davlat nazorat qilmaydi, buning tartibini nodavlat OTMlarning o‘zi mustaqil belgilaydi. Nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish mumkin yoki mumkin emasligini o‘sha OTMning o‘zidan aniqlashtiring.

5. Nodavlat OTMdan nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish:

Buni ham davlat nazorat qilmaydi, tartibini ko‘chirmoqchi bo‘linayotgan nodavlat OTMdan aniqlashtirish kerak.

6. Xorijdan nodavlat OTMga o‘qishni ko‘chirish:

Buni ham davlat nazorat qilmaydi, tartibini ko‘chirmoqchi bo‘linayotgan nodavlat OTMdan aniqlashtirish kerak.

7. Bir davlat OTM ichida bir yo‘nalish yoki fakultetdan boshqa yo‘nalish yoki fakultetga o‘qishni ko‘chirish:

Ushbu masala OTM rektori tomonidan hal qilinadi. Bunda ko‘chirilayotgan yo‘nalishning mos va turdoshligi, ko‘chirilish sababi, OTM imkoniyatlari va boshqa faktorlar inobatga olinishi mumkin.

8. Bir OTM va hatto bir yo‘nalish doirasida ta‘lim shaklini yoki tilni o‘zgartirish:

Ushbu masala ham OTM ma’muriyati tomonidan hal qilinadi. Bunda ham ko‘chirish maqsadi, OTMning imkoniyati (masalan, auditoriya sig’imi, professor-o‘qituvchilari soni va hk) va boshqa faktorlarga qaralishi mumkin. Sirtqidan kunduzgiga o’tkazish deyarli imkonsiz, lekin kunduzgidan sirtqiga ko‘chirish mumkin.

9. Qo`shma ta`lim dasturidan o‘qishni ko‘chirish:

Qo`shma ta`lim dasturidan faqat qo`shma ta`limga o‘qishni ko‘chirish mumkin.

XQolgan xollarda ko‘chirishga ruxsat etilmaydi.